

“TASDIQLAYMAN”

**“O‘zbekiston yosh fermerlari
Kengashi” nodavlat notijorat
tashkiloti raisi**



M. Inoyatov

M.Inoyatov

2026 yil “31” iyul

**“Yosh fermerlar chempionati” doirasida
“Yilning agro brendi” nominatsiyasi bo‘yicha
chempionatni tashkil etish va o‘tkazish
tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

Toshkent – 2026 yil

“Yosh fermerlar chempionati” doirasida “Yilning agro brendi” nominatsiyasi bo‘yicha chempionatni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

Ushbu Nizom “Yosh fermerlar chempionati” doirasida “Yilning agro brendi” nominatsiyasi bo‘yicha chempionatni (keyingi o‘rinlarda – chempionat deb yuritiladi) tashkil etish, o‘tkazish, ishtirokchilarni baholash, g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash tartibi hamda ushbu chempionatni tashkil etishda tegishli tashkilot va vazirliklar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Nizom doirasida quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

“Yosh fermerlar chempionati” doirasida “Yilning agro brendi” nominatsiyasi bo‘yicha chempionat – O‘zbekiston Respublikasi hududida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan, o‘z mahsuloti uchun agro brend yaratgan va uni muvaffaqiyatli rivojlantirayotgan yoshlarni aniqlash hamda rag‘batlantirish bo‘yicha tanlov;

chempionat ishtirokchilari – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan (ushbu yosh ham), fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, agroklaster, kooperatsiya yoki qishloq xo‘jaligi sohasidagi boshqa sub‘yektlarda rasmiy faoliyat yuritayotgan hamda o‘zi ishlab chiqarayotgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti yoki mahsulotlari uchun shakllangan agro brendga ega bo‘lgan, uni bozorda muvaffaqiyatli rivojlantirib kelayotgan va chempionatda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan yoshlar;

chempionat tashkilotchilari – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, “O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi” NNT, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari kengashi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Toshkent davlat agrar universiteti;

Ishchi guruhi – chempionatni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha vazifalarni amalga oshiruvchi tashkilotchilarning respublika, viloyat boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlarining mas‘ul xodimlaridan iborat guruh (1-ilova);

Komissiya a‘zolari – chempionat ishtirokchilari o‘rtasida g‘oliblarni aniqlovchi tashkilotchilarning respublika darajasidagi mas‘ul xodimlari hamda soha mutaxassislaridan iborat guruh (2-ilova).

2-bob. Maqsad va vazifalar

2.1. Chempionatning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi hududida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini muvaffaqiyatli brendga aylantirgan, ularning raqobatbardoshligi, bozordagi tanilishi va qo‘shilgan qiymatini oshirishga erishgan yoshlarni aniqlash, rag‘batlantirish hamda milliy agro brendlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

2.2. Chempionatning vazifalari quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun mustahkam va raqobatbardosh agro brendlarni shakllantirgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

mahsulotlarning qo'shilgan qiymati, bozorda tanilishi va marketing salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi tashabbuslarni rag'batlantirish;

milliy agro brendlarni ichki va tashqi bozorlarda ommalashtirishga hissa qo'shayotgan yoshlarni aniqlash.

3-bob. Chempionat ishtirokchilari, o'tkazish bosqichlari va muddatlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan 18 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan (ushbu yosh ham), fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, agroklaster, kooperatsiya yoki qishloq xo'jaligi sohasidagi boshqa sub'yektlarda rasmiy faoliyat yuritayotgan hamda o'zi ishlab chiqarayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti yoki mahsulotlari uchun shakllangan agro brendga ega bo'lgan, uni bozorda muvaffaqiyatli rivojlantirib kelayotgan yoshlar chempionatda doimiy yashash joyi yoki yer maydoni joylashgan hudud bo'yicha ro'yxatdan o'tgan holda ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Arizalarni topshirish shartlari va muddatlari chempionat tashkilotchilarining rasmiy veb-sahifalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

3.3. Chempionat 5 bosqichda o'tkaziladi:

I bosqich – ro'yxatdan o'tish bosqichi: 2026-yil 5-31-avgust;

Mazkur bosqichda talabgorlar yoshfermer.uz elektron platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tadi hamda ushbu Nizomda belgilangan umumiy va nominatsiya bo'yicha maxsus hujjatlarni elektron shaklda taqdim etadi.

II bosqich – onlayn saralash bosqichi: 2026-yil 1-10-sentabr;

Talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar komissiya a'zolari tomonidan onlayn tartibda ko'rib chiqiladi va 6.1-bandda belgilangan mezonlar orqali baholanadi.

Har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri)dan mazkur nominatsiya bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 3 nafargacha ishtirokchi ikkinchi bosqichga o'tkaziladi.

III bosqich – joyiga chiqqan holda o'rganish: 2026-yil 11-sentabr – 10-oktabr;

Komissiya a'zolari tomonidan onlayn saralash bosqichidan o'tgan ishtirokchilarning faoliyati joyiga chiqqan holda o'rganiladi va 6.1-bandda belgilangan mezonlar orqali baholanadi.

Natijada har bir hududdan 1 nafar, istisno tariqasida komissiya qaroriga ko'ra ayrim hududlardan 2 nafargacha ishtirokchi final bosqichiga tavsiya etilishi mumkin.

Bunda, final bosqichidagi ishtirokchilarning umumiy soni 15 nafardan oshmasligi lozim.

IV bosqich - Agro festival bosqichi: 2026-yil 11-15-oktabr;

Mazkur bosqichda uchinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilar ishtirokida respublika miqyosida Agro festival tashkil etiladi. Festival doirasida ishtirokchilar uchun ko'rgazmalar, taqdimotlar, mahorat darslari (master-klasslar), seminarlar, ochiq muloqotlar, tajriba almashish tadbirlari, madaniy-ma'rifiy dasturlar, final bosqichiga tayyorgarlik hamda chempionat nominatsiyalariga muvofiq amaliy topshiriqlar — Agro Camp tashkil etiladi.

V bosqich – final bosqichi: 2026-yil 16-20-oktabr;

Final bosqichida ishtirokchilar nominatsiya bo'yicha maxsus mezonlar asosida baholanadi.

Baholash uchun har bir ishtirokchiga 10 daqiqa vaqt ajratiladi:

5 daqiqa — o'z xo'jaligi faoliyatini taqdim etish, kelgusidagi biznes loyihasini himoya qilish va komissiya a'zolari savollariga javob berish;

5 daqiqa — ishtirokchi tomonidan oldindan tayyorlangan 3–5 daqiqalik motivatsion videorolikni namoyish etish.

Videorolikda ishtirokchining o'z hayot yo'li, mehnat faoliyati, uchragan qiyinchiliklari, erishgan yutuqlari hamda boshqa yoshlar uchun ibrat bo'ladigan tajribasi yoritilishi lozim.

4-bob. Chempionat shartlari

4.1. Chempionatda ishtirok etish uchun talabgorlar “yoshfermer.uz” elektron platformasidan tegishli nominatsiyani belgilab, quyidagi hujjatlarni taqdim etgan holda ro'yxatdan o'tishlari lozim:

Umumiy hujjatlar:

Pasport ma'lumotlari (famiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, yashash manzili (hudud va tuman (shahar);

Qishloq xo'jaligi sohasida rasmiy faoliyat yuritayotganligini tasdiqlovchi hujjat;

“Men va mening faoliyatim” mavzusida 2 daqiqadan oshmagan videorolik;

Telefon raqami (ushbu raqamga telegram messenjeri orqali ro'yxatdan o'tishni tasdiqlash uchun tasdiqlash kodi yuboriladi).

Nominatsiya bo'yicha maxsus hujjatlar:

Agro brend haqida qisqacha ma'lumot (brend tarixi, konsepsiyasi, mahsuloti va bozordagi o'rni);

Brendning amalda qo'llanilayotganligini tasdiqlovchi materiallar (mahsulot qadog'i, logotip, foto, video yoki savdo nuqtalari haqida ma'lumot);

Mavjud bo'lsa, tovar belgisi (savdo belgisi) guvohnomasi, sertifikat, mukofot, eksport yoki brendga oid boshqa tasdiqlovchi hujjatlar;

zaruratga ko'ra boshqa tasdiqlovchi hujjatlar qo'shilishi mumkin.

Talabgor taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

4.2. Ishtirokchilar chempionatda bir vaqtda 3 ta nominatsiya bo'yicha ishtirok etishlari mumkin.

4.3. Ishtirokchi:

- belgilangan tartibda onlayn ro'yxatdan o'tishi;
- talab etiladigan hujjatlarni elektron shaklda to'liq taqdim etishi;
- o'zi ishlab chiqarayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun shakllangan agro brendga ega bo'lishi hamda ushbu brenddan amalda foydalanayotgan bo'lishi;
- agro brendning bozordagi faoliyati, tanilishi, qadoqlashi, markirovkasi yoki savdo natijalari tegishli hujjatlar yoki amaliy dalillar bilan tasdiqlangan bo'lishi;
- 4.4. Chempionat ishtirokchilari tomonidan chempionatda qatnashish ixtiyoriy va bepul amalga oshiriladi.
- 4.5. Chempionatda tegishli nominatsiyada 1-o'rinni olgan ishtirokchilar chempionatning kelgusi mavsumida ushbu nominatsiyada ishtirok etishi taqiqlanadi.

5-bob. Chempionatni tashkil etish va o'tkazish tartibi

5.1. Chempionatni tashkil etish va o'tkazishga ishchi guruh mas'ul hisoblanadi.

Chempionatni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi a'zolarining namunaviy tarkibi 1-ilovaga muvofiq shakllantiriladi.

5.2. Chempionat ishtirokchilarini baholashga komissiya a'zolari mas'ul hisoblanadi.

Chempionat ishtirokchilarini baholash bo'yicha komissiya a'zolarining namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq shakllantiriladi.

5.3. Komissiya qarori qat'iy bo'lib, o'zgartirilmaydi, e'tirozlar (*appelatsiya*) qabul qilinmaydi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

5.4. Chempionat g'oliblari va finalchilarining kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ular bilan tizimli ishlash maqsadida chempionatdan keyingi rivojlantirish dasturi amalga oshiriladi.

Dastur doirasida:

G'oliblar va finalchilardan iborat "Yosh chempion fermerlar" klubi tashkil etiladi;

ishtirokchilar uchun mentorlik, malaka oshirish va kasbiy rivojlanish dasturlari tashkil etiladi;

ularning respublika va xalqaro ko'rgazmalar, forumlar, o'quv dasturlari hamda tajriba almashish loyihalarida ishtirok etishiga ko'maklashiladi;

istiqbolli ishtirokchilarning investitsiya, eksport va bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi;

chempionat g'oliblari va finalchilari keyingi yillarda o'tkaziladigan chempionatlarda ekspert, mentor, spiker yoki tajriba almashuvchi sifatida jalb qilinishi mumkin;

chempionat ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlik, bilim va tajriba almashishga qaratilgan doimiy muloqot platformasi shakllantiriladi.

6-bob. Chempionat ishtirokchilarini baholash, g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

6.1. Ishtirokchilar quyidagi tartibda baholanadi:

I bosqich – ro'yxatdan o'tish bosqichi.

Ushbu bosqichda ishtirokchilar Chempionatning rasmiy elektron platformasi – yoshfemer.uz veb-sayti orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

Ro‘yxatdan o‘tish bosqichi 2026-yil 5-avgustdan 31-avgustga qadar (ushbu kun ham) davom etadi.

Ishtirokchilar mazkur nizomda belgilangan hujjatlarni elektron shaklda yuklaydi hamda anketa ma’lumotlarini to‘liq to‘ldiradi.

Arizalar belgilangan muddat tugagunga qadar qabul qilinadi. Belgilangan muddatdan keyin yuborilgan arizalar qabul qilinmaydi.

Komissiya a’zolari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi va nizom talablariga muvofiqligi texnik jihatdan tekshiriladi.

Hujjatlari to‘liq va belgilangan talablarga javob beradigan ishtirokchilar Chempionatning II bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

II bosqich – onlayn saralash bosqichi.

Ushbu bosqichda komissiya a’zolari ishtirokchilarning taqdim etgan hujjatlari va ma’lumotlarini masofaviy tartibda quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

T/r	Baholash mezonlari	Baholash balli
1.	Hujjatlarning to‘liqligi va rasmiyligi. <i>Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi, belgilangan talablarga muvofiqligi va rasmiyligi baholanadi.</i>	20
2.	Nominatsiya talablariga muvofiqligi. <i>Ishtirokchining faoliyati tanlangan nominatsiyaning maqsadi, vazifalari va ishtirokchilar uchun belgilangan talablarga muvofiqligi baholanadi.</i>	25
3.	Erishilgan natijalarning asoslanganligi. <i>Taqdim etilgan ma’lumotlarning aniq raqamlar, hisobotlar, sertifikatlar, foto va video materiallar hamda boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslanganligi.</i>	35
4.	Taqdim etilgan ma’lumotlarning sifati. <i>Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi, mantiqiyliqi, mazmundorligi va komissiyaga ishtirokchining faoliyatini to‘liq anglash imkonini berishi baholanadi.</i>	10
5.	Videotaqdimot sifati. <i>Ishtirokchining “Men va mening faoliyatim” mavzusidagi videoroligida faoliyatini aniq, ishonchli va tushunarli tarzda taqdim etish darajasi baholanadi.</i>	10
Jami ballar yig‘indisining eng yuqori ko‘rsatkichi:		100

III bosqich – joyiga chiqib o‘rganish bosqichi.

Onlayn saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan ishtirokchilarning faoliyati komissiya a’zolari tomonidan joyiga chiqqan holda o‘rganiladi.

Ushbu bosqichda ishtirokchining taqdim etgan hujjatlari, erishgan natijalari hamda xo‘jalik faoliyatining haqqoniyliqi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Baholash balli
1.	Taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqqoniyligi. <i>Onlayn bosqichda taqdim etilgan ma'lumotlar, hujjatlar va ko'rsatkichlarning haqiqiyligi joyiga chiqqan holda tekshiriladi.</i>	25
2.	Nominatsiya talablariga mosligi. <i>Ishtirokchining faoliyati, erishgan natijalari va amaliy faoliyati tanlangan nominatsiyaning maqsadi, vazifalari va maxsus talablariga qay darajada mos kelishi baholanadi.</i>	25
3.	Xo'jalik (yoki loyiha) faoliyatining real natijalari. <i>Ishtirokchining o'z yo'nalishi bo'yicha amalga oshirgan ishlari, mahsulot yoki xizmat natijalari, ishlab chiqarish yoki loyihaning amaldagi holati va samaradorligi baholanadi.</i>	25
4.	Faoliyatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi. <i>Ish jarayonlarini tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish, mehnatni boshqarish va faoliyatni samarali yo'lga qo'yish darajasi baholanadi.</i>	15
5.	Rivojlanish salohiyati. <i>Ishtirokchining o'z faoliyatini kelgusida kengaytirish, barqaror rivojlantirish va sohada raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari baholanadi.</i>	10
Jami ballar yig'indisining eng yuqori ko'rsatkichi:		100

IV bosqich – Agro festival bosqichi.

Final bosqichiga yo'llanma olgan ishtirokchilar uchun chempionatning yakuniy bosqichiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida qisqa muddatli o'quv va amaliy tayyorgarlik dasturi — Agro Camp tashkil etiladi.

Agro Camp dasturi doirasida:

qishloq xo'jaligi sohasidagi yetakchi olimlar, mutaxassislar, muvaffaqiyatli fermerlar va tadbirkorlar ishtirokida seminarlar, treninglar hamda mahorat darslari tashkil etiladi;

ishtirokchilarga biznesni rivojlantirish, innovatsiyalar, brending, marketing, eksport, investitsiya jalb qilish va samarali taqdimot qilish ko'nikmalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi;

ishtirokchilar final bosqichida o'z xo'jaligi, mahsuloti yoki biznes loyihasini taqdim etish va himoya qilishga tayyorlanadi.

Chempionatning respublika finali mamlakatning qishloq xo'jaligi sohasidagi yutuqlarini keng jamoatchilikka namoyish etish maqsadida Agro festival shaklida tashkil etiladi.

Agro festival doirasida quyidagi tadbirlar o'tkazilishi mumkin:

finalchilarning mahsulotlari, innovatsion ishlanmalari va biznes loyihalari ko'rgazmasi;

zamonaviy agrotexnologiyalar, raqamli yechimlar va innovatsion ishlanmalar taqdimoti;

investorlar, banklar, eksportchi tashkilotlar, ilmiy muassasalar va xalqaro tashkilotlar ishtirokida uchrashuvlar;

mahorat darslari, panel muhokamalari, ochiq muloqotlar va tajriba almashish tadbirlari;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkasi va agroko'rgazmalar;

aholi, yoshlar va ommaviy axborot vositalari ishtirokida targ'ibot tadbirlari.

V bosqich – final bosqichi.

Uchinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilar final bosqichida ishtirok etadi.

Final bosqichida ishtirokchilarning faoliyati quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Baholash balli
1.	Agro brendning yaratilganlik darajasi va o'ziga xosligi. <i>Brend nomi, konsepsiyasi, o'ziga xosligi va boshqa mahsulotlardan farq qiluvchi jihatlari baholanadi.</i>	20
2.	Brendning bozordagi tanilishi va marketing samaradorligi. <i>Mahsulotning bozordagi mavqei, xaridorlar o'rtasidagi tanilishi, reklama va marketing ishlarining samaradorligi baholanadi.</i>	20
3.	Mahsulotning sifati va brend orqali qo'shilgan qiymat yaratilishi. <i>Brend mahsulot qiymatini oshirishga, iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qay darajada xizmat qilayotgani baholanadi.</i>	20
4.	Brendni rivojlantirish va kengaytirish (masshtablash) salohiyati. <i>Brendni yangi bozorlarga olib chiqish, mahsulot turlarini kengaytirish va eksport imkoniyatlari baholanadi.</i>	15
5.	Qadoqlash, dizayn va korporativ uslub. <i>Mahsulot qadog'i, logotip, vizual uslub va brend identifikatsiyasi baholanadi.</i>	15
6.	Loyihani taqdim etish sifati. <i>Taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi, foto va video materiallar hamda motivatsion videorolikning mazmundorligi va sifati, shuningdek ishtirokchining faoliyati, erishgan natijalari yoki taqdim etgan tashabbusining aniq, asosli va tushunarli tarzda yoritilganligi baholanadi.</i>	10
Jami ballar yig'indisining eng yuqori ko'rsatkichi:		100

6.2. Komissiya a'zolari ishtirokchilarni har bir mezon bo'yicha belgilangan maksimal balldan kelib chiqib mustaqil baholaydi. Yakuniy natija barcha komissiya a'zolari bergan ballarning o'rtacha arifmetik qiymati asosida aniqlanadi.

6.3. Umumiy ball sifatida har bir mezon bo'yicha olingan jami ballar yig'indisi olinadi.

6.4. Chempionat komissiyasi qarori bilan eng ko'p ball to'plagan ishtirokchilar:

I o'rin;

II o'rin;

III o'rin;

deb e'tirof etiladi.

6.5. Ballar teng bo'lgan taqdirda, "Agro brendning yaratilganlik darajasi va o'ziga xosligi" hamda "Brendning bozordagi tanilishi va marketing samaradorligi" mezonlari bo'yicha yuqori ball olgan ishtirokchi ustunlikka ega bo'ladi.

6.6. G'oliblar quyidagi miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

I o'rin – 50 million so'm;

II o'rin – 30 million so'm;

III o'rin – 20 million so'm.

Shuningdek, g'oliblar diplom, esdalik belgisi va chempionatning maxsus sovg'alari bilan taqdirlanishi mumkin.

6.7. Chempionat davomida yuqori faollik, bilim va salohiyatini namoyon etgan, kelgusida zamonaviy qishloq xo'jaligi sohasining yetakchi vakillaridan biriga aylanish salohiyatiga ega ekanini ko'rsatgan, biroq keyingi bosqichga yo'llanma olish yoki g'oliblik uchun zarur ballni to'play olmagan ishtirokchilar qishloq xo'jaligi sohasida bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida "Yosh fermerlar savdo maktabi"ning intensiv o'quv dasturida qatnashish huquqini beruvchi maxsus sertifikat bilan taqdirlanadi.

Ushbu o'quv dasturi doirasida ishtirokchilarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi:

mahsulotni to'g'ri yetishtirish texnologiyalari;

marketing va sotuv;

brending;

onlayn savdo;

eksport faoliyati;

agrobiznesni rivojlantirishning boshqa zamonaviy yo'nalishlari.

6.8. G'oliblarni taqdirlash uchun ajratiladigan mablag'lar "Yosh fermerlar savdo maktabi" loyihasini amalga oshirish uchun "O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi" NNTga ajratilgan mablag'lar hamda hamkor tashkilotlarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

7.1. Chempionat tashkilotchilari o'zaro kelishgan holda chempionat nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolatiga ega.

7.2. Chempionatni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

7.3. G'oliblarga ajratilgan pul mablag'lari o'zining qishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirishga ishlatiladi va ishchi guruhi tomonidan nazorat qilib boriladi.

7.4. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.